




## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Xorazm viloyatida oliy ta'lim tizimi (2020/2021- o'quv yili boshida)

Xorazm viloyatida 3 ta oliy ta'lim tashkiloti - Urganch Davlat Universiteti, Toshkent tibbiyat aqademiysi Urganch filiali, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Urganch filiali faoliyat yuritmoqda.



#### 2020/2021- o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni , kishi






## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Oliy ta’lim tashkilotlarida 2020/2021- o‘quv yili boshida jami 6 864 kishi talabalikka qabul qilinib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davrida 4 593 kishini tashkil etgan (2 271 kishiga, yoki 49,4 % ga oshgan). Oliy ta’lim tashkilotlariga qabul ko‘rsatkichlarining yuqoriligi bo‘yicha Urganch Davlat Universitetida o‘tgan yilga nisbatan 51,5 % ga, Toshkent tibbiyat aqademiysi Urganch filialida 34,5 % va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Urganch filialida 43,3 % ga oshganligi kuzatildi.

### Oliy ta’lim bakalavriat bosqichining asosiy ko‘rsatkichlari


2020- yilda bakalavr darajasiga ega bo‘lgan talabalar soni 22,3 ming tashkil etib, ularning 4,0 ming nafari davlat grantlari asosida ta’lim olgan. 2020- yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 1,8 ming nafarini qizlar (59,2 %) tashkil etgan. 2021- yilda bakalavriatni 3,9 ming nafar talaba bitirishi kutilmoqda, ularning 0,7 ming nafarini (17,2 %) davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar tashkil qiladi.






## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim tashkilotlarida jami 22,8 ming talaba tahsil olmoqda, ulardan 12,8 ming nafari (56,1%) ni qizlar tashkil etadi. Talabalarning 18,3 % i davlat grantlari asosida, 81,7 % i to‘lov-shartnomasi asosida tahsil olmoqda.




### Oliy ta’lim tashkilotlarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli


2020/2021- o‘quv yili uchun magistraturaga jami 205 nafar talaba qabul qilingan. Talabalardan, 57,6 % i (118 nafari) davlat granti asosida, 42,4 % i (87 nafari) to‘lov shartnomasi asosida qabul qilingan. 2019/2020 o‘quv yilida magistraturaga jami 155 nafar qabul qilingan talabalardan 53,5 % i (83 nafari) davlat granti asosida, 46,5 % i (72 nafari) to‘lov - shartnomasi asosida qabul qilingan. Magistraturaga qabul kvotalari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 32,3 % ga oshgan, shu jumladan, davlat granti asosida qabul kvotalari ham 29,7 % ga oshgan .



Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan talabalarning  
jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da



2020/2021- o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishida ayollar ulushining yuqoriligi Urganch Davlat Universiteti (UrDU) da 60,0 % ni tashkil etmoqda, erkaklar ulushining yuqoriligi bo'yicha Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali 80,6 % ni tashkil etgan.



## Oliy ta'lif tashkilotlarining bakalavriat bosqichida ta'lif olayotgan talabalarining ta'lif yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi

2020/2021- o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida jami tahsil olayotgan bakalavriat bosqichidagi talabalar soni 22,3 ming nafarga yetgan bo'lib, shundan, gumanitar sohada 12,3 ming nafar (55,2%) talaba, ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq yo'nalishlarida 1,0 ming nafar (4,6%) talaba, ishlab chiqarish texnikasi sohasi yo'nalishida 5,4 ming nafar (24,3%) talaba, qishloq va suv xo'jaligi sohasida 0,6 ming nafar (2,5%) talaba, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida 1,8 ming nafar (7,8%) talaba, xizmatlar sohasida 1,2 ming nafar (5,6%) talaba olmoqda.

### Ta'lif yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalarining ulushi, % da






## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### 2020/2021- o'quv yili boshida talabalarning ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi

Oliy ta'limga asosiy maqsadi, zamон talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'limga mutaxassisiga talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatlari mutaxassislarni tayyorlashdir.

Xorazm viloyati bo'yicha 3 ta oliy ta'limga tashkilotida jami 22,8 ming nafar talabandan 17,8 ming nafari (78,1%) kunduzgi ta'limga shaklida, 5,0 ming nafari (21,9%) sirtqi ta'limga shaklida bo'yicha tahsil olmoqda.





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi, kishi (2020/2021- o‘quv yili boshiga)

	Jami	shu jumladan:									
		17 yosh va undan kichik	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta	
Xorazm viloyati	22787	176	722	3261	2462	3251	3587	2329	1375	5624	
UrDU	19407	92	331	2793	2025	2738	3154	1989	1099	5186	
TATU Urganch filiali	1501	34	181	210	184	235	204	156	98	199	
TTA Urganch filiali	1879	50	210	258	253	278	229	184	178	239	

Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olinishi va ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. Xorazm viloyati oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan 17 yosh va undan kichik talabalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Urganch Davlat Universitetida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich TATU Urganch filiali hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, 25 yosh va undan katta talabalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Urganch Davlat Universitetiga to‘g‘ri kelgan.







## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim tashkilotlarida professor-o‘qituvchi xodimlar soni, kishi




2020/2021- o‘quv yili boshida Xorazm viloyati oliy ta’lim tashkilotlarida jami 1 151 nafar professor-o‘qituvchilar (o‘rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan, 522 nafarini ayollar (45,4%) tashkil etsa, 629 nafari (54,6 % ) erkaklar dan iborat.





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Oliy ta‘lim tashkilotlarida bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan  
talabalar soni, kishi  
(2020/2021- o‘quv yili boshida)**



2020/2021- o‘quv yili boshiga Xorazm viloyati oliy ta‘lim tashkilotlarida bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 20 nafar talaba to‘g‘ri keladi. Shulardan, eng yuqori ko‘rsatkich Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Urganch filialida qayd etilib, unda bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 25 nafar talaba to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Toshkent tibbiyot aqademiyasi Urganch filialida esa eng past ko‘rsatkich, ya’ni bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 6 nafar talaba to‘g‘ri kelgan.

Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

(62)22-4-65-21

